

“TASDIQLAYMAN”

“Mikrokreditbank” ATB

Boshqaruv raisi o‘rinbosari v.v.b

A.Mustafayev

2025-yil “21”-

Mustafayev



“Mikrokreditbank” ATB tizimida barcha turdagি (Chakana, kichik, korporativ biznes hamda ijtimoiy dasturlar doirasida ajratiladigan kreditlar) kredit operatsiyalar bilan bog‘liq sug‘ortalash amaliyotlarini bajarish bo‘yicha tashkil etilayotgan tanlov

TEXNIK TALABLARI

Toshkent 2025

1. Umumiy talablar

Tanlov maqsadi	“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki (keyingi o'rinda – Bank) tizimi kreditlash amaliyotida foydalaniladigan sug'urta xizmatlaridan kompleks ravishda foydalanish. Bunda Bank va sug'urta tashkiloti (kompaniya) o'rtasida sug'urta xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha Bosh kelishuv imzolanadi
Xizmat nomi:	Bank tomonidan kelgusida ajratiladigan barcha turdag'i (Chakana, kichik, korporativ biznes hamda ijtimoiy dasturlar doirasida ajratiladigan kreditlar) kreditlar bilan bog'liq sug'urtalash amaliyotlarini bajarish. Bunda sug'urta xizmatlari - kredit qaytmaslik xatarini sug'urtalash hamda kredit ta'minoti sifatida qabul qilinayotgan ko'char va ko'chmas mulklarni sug'urtalash xizmatlarini o'z ichiga oladi
Buyurtmachining nomi:	“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki
Sug'urta obyekti:	Qarz oluvchi jismoniy yoki yuridik shaxsning kredit yoki mikroqarz, lizing, bo'lib bo'lib to'lash (rassrochka) to'lash bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi natijasida yo'qotishlar bilan bog'liq bankning mulkiy manfaatlari hamda garovga qo'yilayotgan mol-mulkga yetkazilgan zararning qoplanishi
Sug'urta davri:	Sug'urta polisida aniq ko'rsatilgan va sug'urta kompaniyasining (bundan keyin matnda – “kompaniya”, “tashkilot”, “guruh”, “sug'urtalovchi”, “korxona” so‘zlari bir ma'noni anglatadi) sug'urta shartnomasi bo'yicha majburiyatlar amalda bo'ladigan vaqt oralig'i; kredit muddatiga mutanosib bo'lган muddat.
Sug'urta hududi:	O'zbekiston Respublikasi
Sug'urta summasi:	Kredit summasining 125 foizi (ma'lum qaror yoki talablardan kelib chiqqan holda 125 foizi o'zgarishi) miqdorida (kredit qaytmaslik sug'urtasi garov ta'minoti sifatida taqdim etilsa); kredit summasining 130 foizi (ma'lum qaror yoki talablardan kelib chiqqan holda 130 foizi o'zgarishi) miqdorida (bankka aloqodar shaxs bo'lsa); garovga qo'yilayotgan ko'char va ko'chmas mulk qiymatiga mutanosib ravishda
Sug'urta stavkasi:	Har bir yo'nalish bo'yicha alohida belgilanadi.

*Sug'urta hodisasi:	<p>Bosh kelishuv amalda bo'lgan davrda quyidagilardan biri sodir bo'lishi natijasida sug'urta qildiruvchiga zarar yetkazilishi sug'urta hodisasi deb baholanadi:</p> <p>1. Qarzdor kredit/mikroqarz shartnomasi to'lov grafigiga asosan Sug'urta qildiruvchi oldidagi navbatdagi qarzdorlik to'lovnini bir oy davomida amalga oshirmasligi natijasida Sug'urtalovchida Sug'urta qildiruvchi oldida sug'urta tovonini to'lash bo'yicha majburiyat vujudga keladi. Ushbu holat ketma-ket uch marotaba yuzaga kelgan holatlarda sug'urtalovchi tomonidan kredit bo'yicha qarzdorlikni Sug'urta qildiruvchi oldida to'liqligicha qoplash majburiyati yuzaga keladi (sug'urta hodisasi bo'yicha).</p> <p>2. Kredit/mikroqarz shartnomasi muddati davrida baxtsiz hodisa yuz berishi oqibatida Qarzdorning Sug'urta qildiruvchi oldidagi majburiyatini to'liq bajara olmasligi natijasida Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lash bo'yicha majburiyatini vujudga kelishi, bunda Qarzdorning vaqtincha yoki doimiy to'liq mehnatga layoqatini yo'qotganligi yoki vafot etganligini tasdiqlovchi hujjat mavjud bo'lganda sug'urta tovoni Naf oluvchiga to'liq to'lab beriladi.</p> <p>Bosh kelishuvda ko'rsatiladigan hodisalar natijasida garov mulkiga zarar yetkazilishi sug'urta hodisasi deb hisoblanadi va Sug'urtalovchining Sug'urta qildiruvchiga sug'urta tovonini to'lash majburiyati vujudga keladi.</p> <p>Sug'urtalovchi tomonidan barcha majburiyatlar "Kutish davri"dan so'ng qoplanishi zarur.</p>
Sug'urta shartlari:	<p>Bosh kelishuvda Bank va Sug'urta tashkiloti tomonidan shartlar ko'rib chiqiladi va unga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.</p>
To'lov valyutasi:	O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so'm.
*Kutish davri:	<p>Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar doirasida - 20 kun;</p> <p>Yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar doirasida - 30 kun.</p>
*Maxsus shartlar:	<p>Sug'urta hodisasi ro'y berganligi to'g'risida sug'urta qildiruvchi/qarz oluvchi tomonidan xabar berish - 30 kuni ichida amalga oshirish va tizimlararo integratsiyani tashkil etish</p>

Takliflarni topshirishning oxirgi muddati:	Xarid qilish jarayoni to'g'risida e'lion qilingan kundan boshlab 5 ish kuni
*Sug'urtalovchi sug'urta kompensatsiyasini to'lamaydigan istisno holatlar:	<ul style="list-style-type: none"> - Agar sug'urta hodisasi Sug'urta qildiruvchining / qarz oluvchining niyati tufayli (qasddan) sodir etilgan bo'lsa; - qasddan qilingan harakatlar zaruriy mudofaa yoki o'ta zarurat holatida sodir etilgan vaziyatlar; - yadroviy portlash, radiatsiya yoki radioaktiv zararlanish ta'sirlarida; - harbiy harakatlar, manevrlar yoki boshqa harbiy harakatlar.

**Bosh kelishuv har bir sug'urta mahsuloti bo'yicha alohida imzolanishini inobatga olib, tomonlar kelishuviga asosan belgilanadi.*

2. Sug'urtalovchiga qo'yiladigan talablar:

2.1. Sug'urta kompaniyasining faoliyati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-martdagি PQ-108-sonli qarori talablariga javob berishi shart.

2.2. Sug'urta tashkilotining faoliyati talab etilayotgan sug'urta shartnomasini tuzish bo'yicha litsenziya klassiga (8,9 hamda 14 klass) ega bo'lishi shart.

2.3. Sug'urta tashkilotining Bank tizimida hisobvarag'i mavjud bo'lmasa ikkilamchi hisobvaraq ochishi talab etiladi.

2.4. Sug'urtalovchi O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorida kamida 3 yillik ish tajribasiga ega bo'lishi shart.

2.5. Integratsiyalashgan ma'lumotlar tizimi orqali masofaviy xizmatlar ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lishi shart.

2.6. Ustav kapitalining eng kam miqdori - 50 mlrd. so'm bo'lishi shart;

2.7. "Mikrokreditbank" ATB tizimida Sug'urta tashkiloti tomonidan eng kamida 10 000 000 000 (o'n milliard) so'm miqdorida muddatli depozit shakllantirilishi majburiydir .

2.8. O'tgan davrdagi har choraklik moliyaviy hisobotlarni hamda so'nggi bir yil uchun mustaqil auditorlik kompaniyasi tomonidan tasdiqlangan moliyaviy hisobotlarni taqdim etishi shart.

2.9. Tanlovda shu kabi xizmatlarni ko'rsatishda ishtirok etishi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan taqiqlanmagan, tanlovda ishtirok etish shartlarini to'liq bajargan, tanlov asosida sotib olingan tegishli xizmatlarni ko'rsatish tajribasiga ega mahalliy sug'urta tashkilotlari ishtirok etishlari mumkin.

2.10. Tanlovda ishtirok etish uchun taklif taqdim etilgan sanada xalqaro va mahlalliy reyting agentliklaridan amalda bo'lgan ijobjiy reytingga ega bo'lishi shart.

2.11. Bosh kelishuv imzolangan taqdirda Sug'urta tashkiloti choraklik moliyaviy hisobotlarini Bankka taqdim etib borishi lozim.

2.12. So'nggi moliyaviy hisoboti asosida quyidagi moliyaviy ko'rsatkichlar (koeffitsient) hisoblab chiqiladi:

№	Moliyaviy ko'rsatkichlar	Hisoblash metodikasi	Normativ
1	Leveraj (leverage)	Kapital / jami aktivlar	10% va undan yuqori
2	Joriy likvidlik ko'rsatkichi –	Joriy aktivlar / (Joriy majburiyat + sug'urta zaxiralari)	80% dan kam bo'limgan miqdorda
3	Absolyut likvidlik ko'rsatkichi	Pul mablag'lari va ekvivalentlari/ sug'urta zaxiralari	55% dan kam bo'limgan miqdorda
4	ROA – (Aktivlar rentabelligi)	Sof foyda / jami aktivlar	0.5% dan kam bo'limgan miqdorda
5	ROE – (Kapital rentabelligi)	Sof foyda / Kapital	1% dan kam bo'limgan miqdorda
6	To'lov darajasi nisbati (Коэффициент уровня выплат)	Sug'urta tovoni/ Ishlab topilgan sug'urta mukofoti	1%dan kam bo'limgan - 80% dan baland bo'lmashligi
7	Xarajatlar darajasi ko'rsatkichi (Показатель уровня расходов)	(Ko'rsatilgan sug'urta xizmatlarining tannarxi – sug'urta to'lovleri + Davr xarajatlari)/ Ishlab topilgan sug'urta mukofotlari	80% dan baland bo'lmashligi- 10% dan kam bo'lmashligi
8	Qayta sug'ortalovchilarining sug'urta zaxiralaridagi ulushi (Показатель уровня расходов)	Qayta sug'ortalovchilarining sug'urta zaxiralaridagi ulushi / jami sug'urta zaxiralar	80% dan baland bo'lmashligi- 10% dan kam bo'lmashligi

2.13. Sug'urta kompaniyalarining reytingi Bankdagi ichki reyting baholash metodikasi asosida har olti oyda yangilanishini inobatga olib, sug'urta tashkilotlari har chorakda moliyaviy hisobotlarini Bankka taqdim etishi shart. Bunda Bosh kelishuv olti oy muddatga imzolanadi hamda reyting ko'rsatkichlar qayta ko'rib chiqilgach Bosh kelishuv muddati uzaytirilishi mumkin.

2.14. Quyidagi ishtirokchilar tanlovda qatnashishi mumkin emas:

- Buyurtmachi bilan sud jarayonida bo'lgan sug'urta tashkilotlari;
- insofsiz ijrochilarining yagona reyestriga kiritilgan sug'urta tashkilotlari;

- qayta tashkil etilish, tugatilish yoki bankrotlik holatida bo'lgan sug'urta tashkilotlari;
- soliq va boshqa majburiy to'lovlар bo'yicha qarzdorligi mavjud bo'lgan sug'urta tashkilotlari;
- imtiyozli soliq rejimi beriladigan va (yoki) moliyaviy operatsiyalar amalga oshirilganda oshkor etish va axborot berish nazarda tutilmaydigan davlat va hududlar (offshor hududlar) da ro'yxatdan o'tgan va/yoki hisobvaraq ochgan tashkilotlar;
- sug'urta tashkilotida 30 kalendar kundan ortiq davom etadigan joriy hisob uchun kartoteka mavjud bo'lgan sug'urta tashkilotlari;
- ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha lozim darajada bajarilmagan majburiyatlarga ega tashkilotlar.

3. Sug'urtalovchi quyidagi hujjatlarni taqdim qilishi shart:

- 3.1. Tanlovda ishtirok etish uchun tasdiqlangan yozma ko'rinishdagi ariza (1-shakl).
- 3.2. Sug'urtalovchining muxri bilan tasdiqlangan tashkilotning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi.
- 3.3. Sug'urta sohasidagi faoliyatni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi tomonidan berilgan litsenziyaning sug'urtalovchi muxri bilan tasdiqlangan nusxasi.
- 3.4. Xalqaro va milliy reyting agentliklaridan olingan ijobiy reytingini tasdiqlovchi hujjat (taklif taqdim etilgan sanada amalda bo'lishi lozim) nusxasi.
- 3.5. Mustaqil auditorlik tashkiloti tomonidan tasdiqlangan oxirgi 1 yil uchun moliyaviy hisobotlar va oxirgi choraklik moliyaviy hisobotlari.
- 3.6. Sug'urtalovchining muxri bilan tasdiqlangan oxirgi 1 yil davomida kreditlar bo'yicha sug'urta to'lovlari hajmi to'g'risidagi hisobot.
- 3.7. Buyurtmachi bilan sud jarayonida emasligini, insofsiz ijrochilarining yagona reyestriga kiritilmaganligini, qayta tashkil etilish, tugatilish yoki bankrotlik holatida emasligini, soliq va boshqa majburiy to'lovlар bo'yicha qarzdorligi mavjud emasligini, imtiyozli soliq rejimi beriladigan va (yoki) moliyaviy operatsiyalar amalga oshirilganda oshkor etish va axborot berish nazarda tutilmaydigan davlat va hududlar (offshor hududlar) da ro'yxatdan o'tmaganligini va/yoki hisobvaraq ochmaganligini, ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha lozim darajada bajarilmagan majburiyatlarga ega emasligini tasdiqlovchi kafolat xati (2-shakl).
- 3.8. Ishtirokchi haqida umumiy ma'lumot (3-shakl).
- 3.9. Ishtirokchi tomonidan Bank taklif etayotgan kredit xizmatlari uchun belgilangan sug'urta tariflari hamda shunga o'xshash xizmatlarni taqdim etish tajribasi haqida ma'lumot (4-shakl);

3.10. Tashkilot (korxona) rahbarining tanlovda ishtirok etishi mumkin bo'limgan taqdirda, quyidagi vakolatlarga ega bo'lgan vakolatli vakil nomiga ishonchnomaga taqdim etilishi kerak:

- a) tanlov hujjatlarini taqdim etish;
- b) buyurtmachi va ishchi organ bilan muzokaralar olib borish;
- c) tanlov yuzasidan majlislarda qatnashish;
- d) tijorat taklifining texnik va narx qismiga oid savollarga, shuningdek, boshqa masalalarga oydinlik kiritish.

3.11. Bank bilan imzolanishi kutilayotgan Bosh kelishuv namunasi.

4. Tijorat taklifi

4.1. Ishtirokchi ushbu talabning 1, 2, 3 va 4-shakllarini o'zida ifoda etuvchi hamda talab etilgan hujjatlarni ilova qilgan holda tijorat taklifini taqdim etishi kerak.

**Kichik biznes departament
direktori v.v.b**



F.G'aybullayev




B.Radjabov

**Ijtimoiy dasturlarni amalga
oshirish departament direktori
o'rinnbosari**



A.Mirzabayev

**Korporativ biznes department
direktori v.v.b**



S.Jepbarov



R.Axmedov

**Chakana biznes departament
direktor v.v.b**



Sh.Sattorov

**Kreditlarni boshqarish
departament direktori
o'rinnbosari**

**Risk menejment department
direktori**

ISHTIROKCHINING FIRMA BLANKASIDA

No: _____
Sana: _____

Tanlov komissiyasiga

ARIZA

“Mikrokreditbank” ATB tomonidan amalga oshiriladigan kreditlash operatsiyalari bilan bog’liq sug’urta xizmatlarini ko’rsatish bo‘yicha texnik talablarni o’rganib chiqib _____ texnik talablar va tanlov
(ishtirokchining nomi)
hujjatlariغا muvofiq sug’urtalash xizmatlarini ko’rsatish bo‘yicha tanlovda qatnashish istagini bildiradi.

Taklifni tayyorlashga javobgar shaxs:

Telefon/Faks: _____

Elektron pochta manzili: _____

Rahbar: _____

lavozimi

F.I.Sh.

imzo

Muxr o’rni

ISHTIROKCHINING FIRMA BLANKASIDA

No: _____
Sana: _____

Tanlov komissiyasiga

KAFOLAT XATI

ushbu kafolat xati orqali o'zining:
(ishtirokchining nomi)

- "Mikrokreditbank" ATB bilan sud jarayonida emasligini;
- insofsiz ijrochilarning yagona reyestriga kiritilmaganligini;
- qayta tashkil etilish, tugatilish yoki bankrotlik holatida emasligini;
- soliq va boshqa majburiy to'lovlар bo'yicha qarzdorligi mavjud emasligini;
- imtiyozli soliq rejimi beriladigan va (yoki) moliyaviy operatsiyalar amalga oshirilganda oshkor etish va axborot berish nazarda tutilmaydigan davlat va hududlar (offshore hududlar) da ro'yxatdan o'tmaganligini va/yoki hisobvaraq ochmaganligini;
- Bosh kelishuv imzolanishidan avval "Mikrokreditbank" ATB tizimida eng kamida 10 000 000 000 (o'n milliard) so'm miqdorida muddatli depozit shakllantirish kafolatlanishini;
- ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha lozim darajada bajarilmagan majburiyatlarga ega emasligini tasdiqlaydi.

Imzolar:

Rahbar: _____
lavozimi *F.I.Sh.* *imzo*

Bosh buxgalter
(moloya bo'limi boshlig'i): _____
F.I.Sh. *imzo*

Yurist: _____
F.I.Sh. *imzo*

Muxr o'rni

ISHTIROKCHI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

1	Yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy shaklini ko'rsatgan holda to'liq nomi	
2	Ro'yxatdan o'tganlik to'g'risidagi ma'lumotlar (ro'yxatga olingan sana, ro'yxatga olish raqami, ro'yxatga olish organining nomi)	
3	Yuridik manzil	
4	Aloqa telefoni, faks, elektron pochta	
5	To'liq bank rekvizitlari	
6	Asosiy faoliyat	
7	Litsenziyasi	
8	Mas'ul xodim	

Imzolar:

Rahbar: _____ *lavozimi* *F.I.Sh.* *imzo*

Bosh buxgalter
(moliya bo'llimi boshlig'i): _____ *F.I.Sh.* *imzo*

Yurist: _____ *F.I.Sh.* *imzo*

Muxr o'rni

Chakana biznes yo'nalishidagi taklif etilayotgan sug'urta tarifi

№	Chakana biznes yo'nalishida sug'urta xizmat nomi	Taklif etilayotgan tarif
1	Online va offline mikroqarzlar uchun kredit qaytmaslik sug'urtasi	
2	Avtokredit mahsuloti uchun avtotransport vositasi garovga qabul qilunguncha kredit qaytmaslik sug'urtasi	
3	Avtokredit mahsuloti uchun garovga qabul qilingan avtotransport vositasini sug'urtalash	
4	Chakana kreditlar uchun taqdim qilingan boshqa garov mulklarni sug'urtalash	

Kichik va korporativ biznes yo'nalishidagi taklif etilayotgan sug'urta tarifi

№	Sug'urta xizmat nomi	Taklif etilayotgan tarif
1	Kichik biznes (5 mlrd. so'mgacha) va korporativ (5 mlrd so'mdan yuqori) yo'nalishlari hamda Xalqaro Moliya Institutlari resurslari hisobidan ajratiladigan kreditlar uchun kredit qaytmaslik sug'urtasi	
2	Garovga qabul qilingan yengil avtotransport vositasini sug'urtalash	
3	Taqdim etilgan faktoring xizmatlari bo'yicha sug'urta	
4	Garovga qabul qilingan yuk tashuvchi avtotransport vositasini sug'urtalash	
5	Garovga qabul qilingan maxsus avtotransport vositasini sug'urtalash	
6	Garovga qabul qilingan ko'chmas mulkni sug'urtalash	
7	Garovga qabul qilingan boshqa mulklarni sug'urtalash	
8	Mikromoliya tashkilotlari tomonidan kredit ta'minoti sifatida taqdim etilayotgan "mikromoliya tashkilotlarining kredit portfellari"ni sug'urtalash	

Ijtimoiy dasturlar yo'nalishidagi taklif etilayotgan sug'urta tarifi

№	Sug'urta xizmat nomi	Taklif etilayotgan tarif
1	"Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari" doirasida jismoniy shaxslarga ajratilayotgan kreditlar bo'yicha kredit qaytmaslik sug'urtasi	
2	"Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari" doirasida yuridik shaxslarga ajratilayotgan kreditlar uchun Garovga qabul qilingan avtotransport vositalarini sug'urtalash	
3	"Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari" doirasida yuridik shaxslarga ajratilayotgan kreditlar uchun Garovga qabul qilingan ko'chmas mulkni sug'urtalash	

**So'ralayotgan yoki shunga o'xshash xizmatlarni taqdim etish tajribasi
haqida ma'lumot**

Nº	Xizmatlar predmeti ro'yxati	Xaridorning ismi, uning manzili va aloqa ma'lumotlari	Xizmat muddati	Izoh

Imzolar:

Rahbar: _____ *lavozimi* *F.I.Sh.* *imzo*

Bosh buxgalter
(moliya bo'limi boshlig'i): _____ *F.I.Sh.* *imzo*

Yurist: _____ *F.I.Sh.* *imzo*

Muxr o'rni

Sana _____ 2025-yil